

OZIQ - OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH VA RIVOJLANISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xusanova Gavhar

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,

Pedagogika fakulteti dekan muovini

ORCID: 0009-0008-7894-1851

E-mail: xusanovagavhar27@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish va rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida korxonalarni boshqarish tizimining amaldagi holati, ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar hamda rivojlanish strategiyalarini shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va investitsiya jarayonlarini faollashtirish orqali oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'llari asoslab berilgan. Maqola natijalari boshqaruv tizimini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish hamda sohaning uzoq muddatli rivojlanish istiqbollari belgilashda amaliy ahamiyat ega.

Kalit so'zlar: boshqarish mexanizmi, ta'sir etuvchi omillar, islohotlar, oziq-ovqat sanoati, eksport, import, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti.

Аннотация

В статье исследуются вопросы совершенствования механизмов управления и развития предприятий пищевой промышленности. Проанализировано текущее состояние систем управления предприятиями, факторы, влияющие на эффективность производства и финансовой деятельности, а также механизмы формирования стратегий развития. Особое внимание уделено внедрению инновационных подходов, цифровых технологий и активизации инвестиционных процессов для обеспечения устойчивого развития предприятий пищевой промышленности. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования управленческих процессов, повышения конкурентоспособности и определения долгосрочных перспектив развития отрасли.

Ключевые слова: механизм управления, влияющие факторы, реформы, пищевая промышленность, экспорт, импорт, экспорт продовольственной продукции.

Abstract

The article examines the issues of improving the management and development mechanisms of food industry enterprises. The study analyzes the current state of enterprise management systems, factors affecting production and financial performance, and mechanisms for shaping development strategies. Special attention is given to the implementation of innovative approaches, digital technologies, and the activation of investment processes to ensure sustainable development of food industry enterprises. The findings are of practical significance for enhancing management

processes, increasing competitiveness, and defining long-term development prospects of the sector.

Keywords: control mechanism, influencing factors, reforms, food industry, exports, imports, food exports.

KIRISH

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlantirish va uni boshqarish jarayonlari amaldagi qonun va qonunosti hujjatlari doirasida takomillashib bormoqda. "Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligiga doir normalar va qoidalar davlat organlari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanadi va ular oziq-ovqat mahsuloti muomalasi sohasida ish olib borayotgan yuridik hamda jismoniy shaxslar uchun majburiydir", etib belgilangan.

O'zbekiston iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida eng muhim muammolardan biri oziq-ovqat xavfsizligi va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laonli ta'minlashdir. Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirishning obyektiv zarurati oziq-ovqat sanoati korxonalarining samarali ishlashini nazarda tutadi, chunki bu, oxir-oqibat, nafaqat aholining turmush darajasiga, balki umuman iqtisodiyotning rivojlanishiga ham bog'liq. Shu bois oziq-ovqat sanoati korxonalarini yetuk bozor munosabatlari sharoitida va ichki oziq-ovqat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida nafaqat an'anaviy resurslardan, balki birinchi navbatda texnologik va tashkiliy asosda foydalanishga asoslangan yangi boshqaruv tizimi zarur. Bu vazifa nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator yangi muammolarni hal qilish uchun asos hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish va rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ziyavitdinova N.M. agrosanoat majmuasida klaster yondashuvini qo'llash orqali hududiy rivojlanish va innovatsion faollikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan hamda vertikal va gorizontal integratsiya mexanizmlarining samaradorligini asoslab bergan [1]. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish zanjirini birlashtirish boshqaruv barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida baholangan.

Drucker P.F. boshqaruvning zamonaviy konsepsiyalarini ishlab chiqib, korxonalarda strategik rejalashtirish, natijaga yo'naltirilgan boshqaruv va innovatsion fikrlashning ustuvorligini ilmiy jihatdan asoslagan [2]. U boshqaruv samaradorligi resurslardan oqilona foydalanish va aniq maqsad ko'rsatkichlarini belgilash orqali ta'minlanishini ta'kidlagan.

Kutran K. iqtisodiy tizimlarni boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro bog'liqligini o'rgangan hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda institutsional omillarning rolini ko'rsatgan [3]. Uning tadqiqotlarida korxona faoliyatining barqarorligi tashkiliy tuzilma va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining uyg'unligi bilan izohlangan.

Kerashev A.A. va Baybekova R.A. agrosanoat majmuasida vertikal integratsiyalashgan tuzilmalarni shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini tahlil

qilgan hamda ishlab chiqarish va qayta ishlash bosqichlari o'rtasidagi uzviylik samaradorlikni oshirishini asoslab bergan [4].

Kulman A.A. iqtisodiy mexanizm tushunchasini tizimli ravishda yoritib, uni xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy vositalar majmui sifatida tavsiflagan [5]. Uning qarashlari boshqaruv mexanizmini tarkibiy elementlar asosida tahlil qilish imkonini bergan.

Poluxin A.A. qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o'rgangan hamda texnologik yangilanish va investitsion faollik ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [6].

Saidova D.N., Rustamova I.B. va Tursunov Sh.A. agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini tadqiq etib, ichki bozorni barqaror ta'minlashda qayta ishlash sanoatining ahamiyatini ko'rsatganlar [7].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, statistik ma'lumotlarni guruhlash hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni dinamik tahlil qilish usullaridan foydalanildi. 2014-2023-yillar davomida iste'mol tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar o'rganildi hamda ularning o'sish tendensiyalari baholandi. Shuningdek, korxonalar boshqaruv tizimiga ta'sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar turkumlandi va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri aniqlashtirildi. Ilmiy manbalar asosida boshqaruv mexanizmining tarkibiy elementlari umumlashtirildi hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish oshib bormoqda. Bunda yalpi ichki mahsulot hajmi 2023-yilda 2014-yilga nisbatan 6,03 barobar ortgan, sanoat mahsulotlari hajmi 7,84 barobar hamda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi esa 4,53 barobar ortganini ko'rishimiz mumkin. Bunda tahlil qilinayotgan yalpi ichki mahsulot 1 068 000 mlrd so'm, sanoat mahsulotlari 668 991,7 mlrd so'm va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari 65 174,7 mlrd so'mni tashkil qilib, o'sish ko'rsatkichlari ichida oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish ko'rsatkichi nisbatan pastroq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonning 2014-2023-yillarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi dinamikani tahlil qilsak, ishlab chiqarish hajmi dastlab ko'tarilgan va 2021-yilda eng yuqori cho'qqiga chiqqan. 2014-yildan 2021-yilgacha ishlab chiqarish miqdori deyarli barcha turlarda izchil o'sib borgan. Misol uchun, 2014-yilda umumiy iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 33 868,5 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilga kelib 155 159,1 mlrd so'mga yetgan (1-jadval).

Ammo 2022 va 2023-yillar davomida ishlab chiqarish hajmida keskin pasayish kuzatilgan. 2022-yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi biroz pasayib, 145 011,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Eng keskin tushish esa 2023-yilda kuzatilgan bo'lib,

ishlab chiqarish hajmi yana 2014-yil darajasiga tushib, 33 868,5 mlrd soʻmni tashkil qilgan. Bu juda katta tushish boʻlib, iqtisodiy oʻzgarishlar yoki boshqa omillarning natijasi boʻlishi mumkin.

1-jadval.

Oʻzbekiston Respublikasida 2014-2023-yilda isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, foizda¹

	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Isteʼmol tovarlari	33868,5	42085,5	48253,8	59690,4	83512,6	110321	129348,6	155159,1	145011,7	33868,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	13709,2	18154,6	21970,3	23305,7	24053,2	34565,8	41203,9	51421,1	60474,7	13709,2
Vino-arq mahsulotlari va pivo	1110,9	1207,3	1433,9	1646,6	1948,0	2467,2	2810,1	3076,9	3565,3	1110,9
Nooziq-ovqat mahsulotlari	19048,4	22723,6	24849,6	34738,1	57511,4	73288	85334,5	100661,1	80971,6	19048,4

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishida ham 2014-yildan 2021-yilgacha kuchli oʻsish kuzatilgan, yaʼni 13 709,2 mlrd soʻmdan 51 421,1 mlrd soʻmgacha oshgan. Ammo 2022-yilda yana oʻsish kuzatilib, 60 474,7 mlrd soʻmga yetgan boʻlsa-da, 2023-yilda bu koʻrsatkich 2014-yilgi darajaga, yaʼni 13 709,2 mlrd soʻmga qaytgan.

Vino-arq mahsulotlari va pivo ishlab chiqarishida boshqacha holat kuzatiladi. Ushbu mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi yillar davomida izchil oʻsib borgan, yaʼni 2014-yildagi 1 110,9 mlrd soʻmdan 2023-yilda 3 565,3 mlrd soʻmga yetgan. Ushbu sohada boshqa mahsulotlardan farqli ravishda pasayish emas, aksincha oʻsish davom etgan.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishida ham 2014-yildan 2021-yilgacha jiddiy oʻsish kuzatilgan, yaʼni ishlab chiqarish hajmi 19 048,4 mlrd soʻmdan 100 661,1 mlrd soʻmgacha oshgan. Lekin 2022-yilda bu koʻrsatkich tushib, 80 971,6 mlrd soʻmni tashkil etgan va 2023-yilda yana keskin pasayib, 19 048,4 mlrd soʻmni tashkil qilgan.

Hozirgi kunda qishloq xoʻjaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning salkam yuz foizi, chakana savdo aylanmasi toʻliq holda kichik korxonalar hissasiga toʻgʻri keladi. Lekin oziq-ovqat sanoatida sanoat mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish sohasidagi rivojlanish darajasi talabga toʻliq javob bermaydi. Bu esa tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarni koʻproq tashkil etishni, ularning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifa ekanligini koʻrsatadi.

Oʻzbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining tez rivojlanib ketmasligiga asosiy sabab aylanma mablagʻlarning yetishmasligi, xomashyo tanqisligi, ularning faoliyatini toʻxtatib qolishi va boshqalardir. Shuningdek, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va samaradorligini oshirish boʻyicha bir qator

¹Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hududiy xususiyatlarni inobatga olish hamda raqobat muhitini yaratuvchi korxonalar faoliyatiga qo'yilgan talablar, unga ajratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol darajasi va ishlab chiqarish hajmini iqtisodiy-matematik modellar asosida chuqur o'rganishni talab etadi. Ushbu tahlillar asosida esa mazkur sanoat korxonalarining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va shu asosda raqobatga kirishish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini rivojlantirish uchun uning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xususiyatlari to'g'risida mulohazalar yuritilganda, birinchi navbatda, har bir iqtisodiy faoliyat turida bo'lgani kabi tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat tushuniladi. Chunki umumiy ma'noda tavakkalchilik - tadbirkorlik faoliyatini yuritishda xavf-xatarga va tahlikaga borishdir. Tavakkalchilik tadbirkorlik faoliyatining tub negizi bo'lishiga sabab:

Birinchiidan, tadbirkorning tavakkalchilik asosida faoliyat yuritishi uning iqtisodiy mustaqilligi, faoliyat turini erkin tanlashi, ishlab chiqarish vositalaridan erkin foydalanishini bildiradi.

Ikkinchiidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar raqobat kurashiga kirishadi.

Uchinchiidan, tadbirkor tavakkalchilik bilan ish boshlaganda boshqa qator omillar ta'sirida ham tahlikaga borishi mumkin. Jumladan, iqtisodiyotdagi mavjud nobarqarorlik holati ishlab chiqarish sohasini tanlashda tavakkalchilik xavfini oshiradi. Chunki bu sohaning foydali ekanligi to'g'risida aniqlik darajasi bo'lmaydi.


To'rtinchiidan, tavakkalchilik qonunchilikka ham bog'liq, ya'ni amal qilayotgan qonunosti huquqiy me'yorlardagi qonunchilikka zid holatlar tavakkalchilik xavfini oshiradi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish hisobiga ushbu sohada sezilarli iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu natijaga erishish uchun esa oziq-ovqat sanoati korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta'sir etuvchi omillarni alohida turkumlab olish va shu asosda har bir omilning korxona faoliyatiga ta'sirini baholash lozim (1-rasm) [6].

Oziq-ovqat sanoati korxonasi faoliyatining boshqaruv tizimini tahlil qilganda, yuqori texnologiyali oziq-ovqat sanoati korxonasini boshqarishga resurs yondashuvi nuqtai nazaridan yangi bilimlarni, faoliyatni tashkil etish, nazorat qilish va boshqaruvning barcha funksiyalarini amalda qo'llash hamda ularning qonuniyati haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan axborot va intellektual resurslar alohida e'tibor talab qiladi (1-rasm). Shuni ta'kidlash joizki, oziq-ovqat sanoatida kichik korxonaning o'ziga xos boshqaruv mexanizmlari va xususiyatlari to'g'risidagi masala ham munozaralidir.

Ularni ikki guruhga ajratib boshqarish va o'rganish mumkin, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy guruhlariga. Oziq-ovqat sanoatida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy xususiyati bo'lib, uning tub vazifalarini faoliyat turi sifatida va tadbirkorning mulkdor sifatida mos kelishi hisoblanadi. Eng muhimi, kichik tadbirkorlikning ijtimoiy xususiyati

jamiyatda ijtimoiy tanglikni pasaytiradi va bozor munosabatlarini chuqurlashtirishga olib keladi. Barcha tadbirkorlik faoliyati, xususan, oziq-ovqat sanoati tadbirkorligi uchun ham yaratilayotgan mahsulotning iste'mol qilinishi, uning savdodagi xarid miqdori muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tadbirkorning boshqaruv mexanizmi masalalarini yaxshi anglashi tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruv faoliyatini tashkil etish jarayoni¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini hisobga olib, mazkur sohadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;
- oziq-ovqat korxonalarining xomashyo manbai bo'lgan qishloq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko'magini berish hamda ularga qo'shimcha imtiyozlar yaratish;
- oziq-ovqat sanoati korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

¹ Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зиявитдинова Н.М. Кластерный подход в стратегии инновационного развития агропромышленного комплекса региона // Интернаука: электронный научный журнал. - 2019. - №23 (105).
2. Друкер Питер Ф. Задачи менеджмента в XXI веке: пер. с англ. - М.: Вильямс, 2002. - 128 с.
3. Katerina Kutran. Organizational and Economic Arrangements of Economic Systems Management // Revista ESPACIOS. - 2017. - Vol. 38, №46. - P. 41-51. ISSN 0798-1015.
4. Керашев А.А., Байбекова Р.А. Организационно-экономические аспекты создания и эффективного функционирования вертикально-интегрированных формирований в АПК // Вестник Адыгейского государственного университета. - 2007. - №1. - С. 54-60.
5. Кулман А.А. Экономические механизмы. - М.: Прогресс; Универс, 1993. - 92 с.
6. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России // Аграрная Россия. - 2012. - №5. - С. 23-29.
7. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2016. - 12 b.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali



Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**